



МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ МУАССАСALARIDA INKLYUZIV TA’LIMNI JORIY ETISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

*Qo`qon Universiteti Andijon Filiali “Pedagogika, psixololiya va filologiya”
kafedrasi o`qituvchisi Jakbarova Oyazimxon Mutalipovna
Madaminova Feruzaxon Ahmadullaxanovna
KUAF Sirtqi psixologiya 1-bosqich talabasi*

Annotation

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim tizimini joriy etishning pedagogik va psixologik asoslari yoritilgan. Inklyuziv ta’lim nogironligi bo‘lgan yoki rivojlanishida turli xildagi cheklov larga ega bolalarni jamiyatga to‘laqonli qo‘sish, ularning individual qobiliyat va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga qaratilgan. Maqolada inklyuziv ta’limning mohiyati, asosiy tamoyillari, pedagogik yondashuvlari hamda psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, respublikamizda olib borilayotgan islohotlar, xalqaro tajribalar va mavjud muammolar bo‘yicha tavsiyalar keltiriladi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim tizimida inklyuziv yondashuvni yanada takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar : inklyuziv ta’lim, maktabgacha ta’lim, pedagogik asoslar, psixologik asoslar, maxsus ehtiyojli bolalar, ta’lim tizimi, ijtimoiy integratsiya, individual yondashuv, ta’lim islohotlari

Аннотация

В данной статье рассматриваются педагогические и психологические основы внедрения инклюзивного образования в дошкольных образовательных учреждениях. Инклюзивное образование направлено на полную интеграцию детей с ограниченными возможностями здоровья или различными нарушениями развития в общество, учитывая их индивидуальные способности



и потребности. В статье анализируется сущность инклюзивного обучения, его основные принципы, педагогические подходы и механизмы психологической поддержки. Также рассматриваются проводимые реформы в нашей республике, международный опыт и предлагаются рекомендации по устранению существующих проблем. Результаты исследования могут служить научно-практической основой для дальнейшего совершенствования инклюзивного подхода в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дошкольное образование, педагогические основы, психологические основы, дети с особыми потребностями, система образования, социальная интеграция, индивидуальный подход, образовательные реформы

Abstract

This article examines the pedagogical and psychological foundations of implementing inclusive education in preschool institutions. Inclusive education aims to fully integrate children with disabilities or various developmental challenges into society, taking into account their individual abilities and needs. The article analyzes the essence of inclusive education, its core principles, pedagogical approaches, and mechanisms of psychological support. Additionally, the paper discusses ongoing reforms in our country, international best practices, and provides recommendations for addressing existing challenges. The findings of the study can serve as a scientific and practical basis for further improving the inclusive approach in the preschool education system.

Keywords: inclusive education, preschool education, pedagogical foundations, psychological foundations, children with special needs, education system, social integration, individual approach, educational reforms.

Kirish

Maktabgacha ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni joriy etish bugungi kunda ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim



— bu barcha bolalarga, shu jumladan, jismoniy, aqliy yoki psixologik rivojlanishida turli cheklov larga ega bo‘lgan bolalarga ham, teng sharoitlarda sifatli ta’lim olish imkoniyatini beruvchi yondashuvdir. Bu yondashuv har bir bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olib, ularning jamiyatda to‘laqonli ishtirok etishiga zamin yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, Inson huquqlari bo‘yicha BMT Konvensiyasi, shuningdek, davlat dasturlari mакtabgacha ta’lim muassasalarida barcha bolalarga teng imkoniyat yaratishning huquqiy va tashkiliy asoslarini belgilab bermoqda. Bu esa pedagog va psixologlarning faoliyatida yangi metodik yondashuvlar, zamonaviy ta’lim texnologiyalari va maxsus o‘quv dasturlarini qo‘llashni talab qiladi. Inklyuziv ta’limni samarali joriy etish uchun pedagoglarning inklyuziv kompetensiyasini oshirish, psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini yo‘lga qo‘yish, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish va maxsus o‘quv-resurs bazasini yaratish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ta’lim muassasalarida moslashtirilgan muhit yaratish, masalan, maxsus jihozlar, moslashtirilgan o‘yin va o‘quv materiallari bilan ta’minalash, bolalar o‘rtasida ijobjiy munosabatlarni shakllantirish ham zarur. Maktabgacha ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni joriy etish masalasi nafaqat pedagogik, balki psixologik yondashuvlarni ham o‘z ichiga oluvchi murakkab va dolzarb jarayondir. Tadqiqot ushbu jarayonning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari va ijobjiy natijalarini tahlil qilishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili

Inklyuziv ta’lim g‘oyasi XIX asr oxiridan boshlab rivojlanib kelgan bo‘lib, uning asosiy tamoyillari barcha bolalarga teng ta’lim imkoniyatlarini yaratish va ta’lim tizimida diskriminatsiyani yo‘qotishga qaratilgan. Maktabgacha ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim bo‘yicha ilmiy izlanishlar O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda keng olib borilgan. Pedagog olimlardan N.A. Musayev, D.A.



Xodjieva, T. Karimova ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda maxsus ehtiyojlarni inobatga olgan holda ta’lim-tarbiyani tashkil etish metodlari o‘rganilgan. Xalqaro miqyosda esa UNESCO va UNICEF kabi tashkilotlar inklyuziv ta’limni global miqyosda qo‘llab-quvvatlash, uning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishga katta hissa qo‘shtigan. Maktabgacha ta’lim tizimida inklyuziv ta’limning samarali bo‘lishi uchun pedagog kadrlarning maxsus tayyorgarligi, psixologik xizmatning mavjudligi, ota-onalar bilan hamkorlik va moslashtirilgan ta’lim dasturlarining ishlab chiqilishi muhim ahamiyatga ega. Psixologik yondashuvlarda esa L.S. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi inklyuziv guruhdagi bolalar bilan ishlashda asosiy metodik baza sifatida qo‘llaniladi. O‘zbekistonda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda “Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiysi”da nogironligi bo‘lgan bolalar, rivojlanishida nuqsoni bor yoki maxsus ehtiyojli bolalar uchun teng imkoniyatlarni ta’minalash bo‘yicha davlat siyosati belgilangan. Amaliyotda esa bu jarayonni samarali tashkil etish uchun muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maxsus pedagog va defektologlar bilan ta’minalash, individual ta’lim rejalarini ishlab chiqish zarurligi ta’kidlanadi. Ko‘plab tadqiqotlarda shuningdek, inklyuziv ta’lim muhitining ijobiliy ijtimoiy-psixologik muhit yaratishdagi ahamiyati, bolalarda empatiya, bag‘rikenglik, hamkorlik va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi qayd etiladi. Bu esa nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar, balki sog‘lom rivojlanayotgan bolalar uchun ham ta’lim jarayonini boyitadi.

Tadqiqotlar

Maktabgacha ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni joriy etish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar, avvalo, bolalarning individual ehtiyojlarini aniqlash va ularga moslashtirilgan pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida tajriba-sinov ishlari ikki bosqichda tashkil etildi: diagnostik bosqich va amaliy joriy etish bosqichi. Diagnostik bosqichda pedagoglar,



psixologlar va defektolog mutaxassislar ishtirokida maxsus dastur asosida bolalarning rivojlanish darajasi, qobiliyatları va mavjud cheklovları tahlil qilindi. Shu jarayonda maxsus metodik vositalar, kuzatuv, suhbat va test sinovlari qo'llanildi. Olingan natijalar asosida har bir bola uchun individual rivojlanish xaritasi tuzildi. Amaliy bosqichda esa inklyuziv ta'lim tamoyillariga asoslangan mashg'ulotlar, guruhli va individual ishlash usullari, maxsus o'quv materiallari va texnik vositalar joriy etildi. Pedagoglarga inklyuziv metodikani o'zlashtirish bo'yicha treninglar va seminarlar o'tkazildi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bolalarning ijtimoiylashuvi, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalari va nutq rivojida sezilarli o'sish kuzatildi. Maxsus psixologik maslahatlar, ota-onalar uchun ma'rifiy uchrashuvlar tashkil etildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, inklyuziv ta'lim tizimida oila, pedagog va psixologning hamkorligi bolaning rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mакtabgacha ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni samarali joriy etish jarayonida bir nechta asosiy omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, pedagoglarning inklyuziv ta'lim bo'yicha nazariy va amaliy tayyorgarligi yuqori darajada bo'lishi zarur. Kuzatuv va suhbatlar shuni ko'rsatdiki, maxsus metodikaga ega bo'lgan, tolerantlik tamoyillariga amal qiladigan pedagoglar inklyuziv muhit yaratishda muvaffaqiyatli natijalarga erishmoqda. Psixologik tahlillar natijalariga ko'ra, nogironligi bo'lgan va rivojlanishida turli xususiyatlarga ega bo'lgan bolalarning ijtimoiy moslashuvi bevosita muhitning qabulchanligiga bog'liq. Guruh ichidagi do'stona munosabatlar, o'zin faoliyati orqali integratsiya va individual yondashuv bolalarning o'zini erkin his qilishiga yordam beradi. Bu esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va rivojlanish sur'atini tezlashtiradi. Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ota-onalarning ongli ishtiroki, pedagogik maslahatlar olishga tayyorligi va



farzandini umumiy jarayonga faol qo'shishiga bog'liq. Tadqiqot davomida ota-onalar uchun seminar va treninglar o'tkazish ularning munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirgani kuzatildi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limning samaradorligini oshirish uchun quyidagilar muhim: pedagoglarni muntazam malaka oshirish, psixologik-pedagogik qo'llanmalar yaratish, muassasa infratuzilmasini moslashtirish va ota-onalarni jarayonga jalg etish. Shu shartlar bajarilganda, har bir bola teng imkoniyatlarga ega bo'lib, jamiyatning faol a'zosiga aylanishi uchun zamin yaratiladi.

Xulosa

Maktabgacha ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni joriy etish – zamonaviy ta'lim tizimining eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Ushbu jarayon nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim-tarbiyasini ta'minlaydi, balki ularning jamiyat hayotiga to'laqonli qo'shilishiga zamin yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim tizimi bolalarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va psixologik barqarorligini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Pedagogik yondashuvlar inklyuziv guruhda ta'lim berishda differential va individual ta'lim metodlarini qo'llashni talab etadi. Psixologik asoslar esa bolaning qobiliyatlari, individual ehtiyojlari va rivojlanish sur'atlarini inobatga olgan holda, o'qituvchi va tarbiyachining muloqot madaniyatini yuksaltirishni, hamdardlik va bag'rikenglik fazilatlarini shakllantirishni taqozo etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish uchun moddiy-texnik baza, malakali pedagoglar va maxsus psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi zarur.

Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, ularga psixologik maslahatlar berish va bolani oilada to'g'ri qo'llab-quvvatlashga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, inklyuziv ta'limni joriy etishning muvaffaqiyati pedagoglarning kasbiy mahorati, psixologik tayyorgarligi hamda ta'lim jarayonini tashkil etishdagi ijodkorligiga bog'liq. Inklyuziv ta'lim –



insonparvarlik g‘oyalariga asoslangan, barcha bolalarga teng imkoniyat yaratishga qaratilgan tizimdir. Uni maktabgacha ta’lim muassasalarida to‘laqonli joriy etish jamiyatning ijtimoiy rivojlanishiga, keljak avlodning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois, davlat siyosatida inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash, pedagog va psixologlarning malakasini oshirish hamda ijtimoiy ongda bu tizimning ahamiyatini keng targ‘ib qilish zarurdir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 48 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2020. – 32 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. PQ-4860-son, 13.10.2020 y.
4. Hasanboeva O., Yo‘ldosheva Sh. *Pedagogika*. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2019. – 352 b.
5. Qurbonova M. *Maktabgacha ta’lim pedagogikasi*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 276 b.
6. Mahmudova N., Tursunova G. *Psixologiya asoslari*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2018. – 240 b.
7. Karimova V. *Inson psixologiyasi va rivojlanish bosqichlari*. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2022. – 198 b.